

“UMUMTA’LIM MAKTABLARI TA’LIM SIFATINI TAKOMILLASHTIRISHDA MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGLARINING O‘RNI”

Farg’ona viloyati Quva tumani

MMTB tasarrufidagi 47-maktab amaliyotchi psixologi

Temirova Oygul Abdug’opurovna

Annotatsiya: Zamonaviy ta’lim tizimimizda ta’lim sifatini yanada rivojlantiirishda maktab amaliyotchi psixologlari o‘rni yanada oshib bormoqda. Binobarin jamiyatimizda turli yosh va qatlama shaxslarda muommolar ortib borishi oqibatida etuk, sog‘lom yosh avlodni tarbiyalash ishlarini yanada rivojlantirishda umumta’lim maktablari psixologlari faoliyatini, ish samaradorligini amalga oshirish uchun ular faoliyatini etarli shart-sharoitlar, texnalogiyalar, moddiy-texnik bazalar bilan psixologlar faoliyatiga jiddiy e’tibor berish orqali ushbu muommolarni bartaraf etish mumkin.. Ushbu maqolada umumta’lim maktablari amaliyotchi psixologlari faoliyati sohalari, samarali usullari to‘g‘risida fikr yuritiladi, shuningdek psixologlar faoliyatini yanada takomillashtirish masalalar muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: amaliyotchi psixolog, ta’lim sifati, zamonaviy ta’lim, psixologik ma’rifat va tashviqot, psixologik-pedagogik tashxis.

Mamlakatimizda uzlusiz ta’lim tizimini isloh qilish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”dagi vazifalarni bochqichma-bosqich hayotga tadbiq etish, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy tarkibiy qismlari bo‘lgan-shaxs, davlat va jamiyat, uzlusiz ta’lim, fan va ishlab chiqarishga yo‘naltirilganligi ta’limning kelajakdagi asosiy maqsadlarini belgilab berdi. Shuningdek, ta’limni inson uchun xizmat qilishi, bu boradagi islohotlar asosan 10 tayanch tamoyili (ta’limni demokratlashuvi, ta’limni ustuvorligi, ta’lim va tarbiyaning uzviy bog‘liqligi, ta’limning milliy yo‘naltirilganligi, ta’limning insonparvarligi, ta’limning ijtimoiylashuvi, ta’lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqaqlashtirilgan yondashuv, iste’dodli yoshlarni aniqlash, ta’limning uzlusizligi va izchilligi, ta’lim tizimining dunyoviy xarakterga ega ekanligi) hayotga tadbiq etilayotganligini ko‘rish

mumkin. Jumladan yoshlarni mamlakatimizda yaratilgan ilmiy-texnikaviy imkoniyatlardan kengroq foydalanish huquqi kafolatlangan.

Shu narsani alohida ta'kidlash lozimki, keyingi yillarda ta'lim sohasida ta'limni sifatini ta'minlashda, xususan ta'limni boshqarish sohasida muhim o'zgarishlar yuz berdi. Keyingi islohotlarning asosiy maqsadi - ta'limning davlat va jamiyatdagi tezkor rivojlanish manfaatlariga xizmat qiladigan, o'zaro aloqani ta'minlaydigan samarali boshqaruv tizimi bilan ta'limning yuqori sifatini, uning turli- tumanligini va shaxs hamda jamiyat ehtiyojlarini qondirishga qaratilganligini uyg'unlashtirishdan iborat. Kadrlar tayyorlash tizimida ta'lim tizimini rivojlantirishning yo'nalishlaridan biri – o'quvchilar shaxsini, shaxsiy fazilatlari, qiziqishlari va xulq-atvorini puxta o'rgangan holda ularga pedagogik-psixologik shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Bugungi kunda bu borada ta'lim-tarbiya muassasalarining amaliyotchi psixologlari va pedagoglariga dolzarb vazifalar qo'yilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol shaxs qilib voyaga etkazish, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida» 2018- yil 14- avgustdagい PQ-3907-son qarori1 ijrosini ta'minlash, shuningdek, umumiy o'rta va o'rta maxsus davlat ta'lim muassasalarida o'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida olg'a surilayotgan qator g'oyalar amaliy psixologiyaning yuksalishiga keng imkoniyatdir.

Ulug' rus pedagogi va psixolog K.D. Ushinskiy: «Agar pedagogika odamni har jihatidan tarbiyalamoqchi bo'lsa, u oldin o'sha odamni ham har jihatidan bilib olishi kerak», degan edi. O'quvchini bilib olish – shu o'quvchining darslarni o'zlashtirish darajasini bilish demakdir, shuningdek, o'quvchining psixik xususiyatlarini bilish demakdir, uning qobiliyat va havaslari qanaqa ekanligini, uning diqqat – e'tibori, hislari, irodasi, xotirasi, tafakkuri qanday zohir bo'lishini bilish demakdir. Ta'lim – tarbiyaishida pedagog bolalarni bilimdan bahramand qilish, ularga ko'nikma va malaka berish bilangina kifoyalaniib qolmay, shuningdek, o'quvchilar shaxsining hamma tomonlarini, dunyoqarashi, xarakteri, irodasi, qobiliyati va havaslarini takomillashtirishi lozim. Buning uchun esa psixikaning

ayrim tomonlari qanday sharoitda va qaysi pedagogik usullar yordami bilan o‘zlashtirishini va takomillashuvini bilmoq darkor.

Masalan, I.V.Dubrovina tadqiqotlarida mакtabda psixologik xizmatni tashkil etishdagi nazariy va amaliy jihatlarning asoslanishi, L.I.Bojovichning o‘quvchi shaxsi va uning mакtab yoshidagi shakllanish bosqichlarini psixologik tasniflovchi empirik ma’lumotlari, A.G.Asmolovning o‘quvchi faoliyati va ustavka uyg‘unligini izohlab beruvchi tadqiqotlari, D.I.Feldshteynning ontogenezda rivojlanuvchi shaxs ijtimoiy taraqqiyotining psixologik qonuniyatlarini ochib berishga qaratilgan qator ilmiy– tadqiqiy ko‘rsatmalari, Ye.A.Klimovning o‘quvchini kasbga yo‘naltirishdagi individual uslubni o‘zida mujassamlashtirgan psixologik ishlanmalari, V.S.Merlinning o‘quvchi shaxsidagi individual va sotsial tipik xususiyatlar psixologiyasini izohlab berishga qaratilgan asarlari, E.G‘.G‘ozievning ta’lim muassasalaridagi psixologik xizmat vazifalarini qayd etishga bag‘ishlangan ko‘rsatmalari, M.G.Davletshinining O‘zbekistondagi psixologik xizmatning bugungi holati va vazifalarini talqin qilishga qaratilgan ilmiy- amaliy fikr mulohazalari, G‘.B.Shoumarovning Xalq ta’limi tizimida psixologik xizmatning joriy etilishi bilan bog‘liq yangiliklar, muammolar va echimlarga bag‘ishlangan nazariy-ilmiy va ijtimoiy- amaliy ahamiyatga molik fikr-mulohazalari, Sh.R. Barotovning ta’limda psixologik xizmat amaliyotiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot natijalari, B.R.Qodirovning O‘zbekistondagi iqtidorli va iste’dodli bolalarni tanlash va tarbiyalashga qaratilgan qator nazariy-ilmiy va amaliy-uslubiy asarlari shular jumlasidandir.

Turli sohalarda faoliyat yuritar ekanmiz, albatta, kasbiy sifatlar psixologning kasbiy jarayonini to‘ldirib turuvchi muhim jabha hisoblanadi. Bugungi kunda mакtab amaliyotchi psixologlari o‘quvchi faoliyatidagi ijtimoiy-psixologik muhofazani takomillashtirish bilan bog‘liq quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari zarur:

- ✚ har bir sinfdagi ijtimoiy-psixologik muhitning har bir o‘quvchi shaxsiga ijobiy ta’sirini tarkib toptirish, hamda har bir o‘quvchining o‘quv faoliyatiga nisbatan o‘z-o‘ziga adekvat baho bera olishini ta’minalash;
- ✚ har bir o‘quvchining o‘z-o‘zini bilishi, anglash, idora qilish va o‘z-o‘zidan ijtimoiy ma’noda muvaffaqiyatli qoniqish hosil qilishi uchun shart-sharoitlarni hozirlash,

shuningdek, har qanday o‘quv faoliyati talablarini bajarish jarayonida o‘quvchining meyoriy-hissiy holat chegarasidan chiqib ketmasligi uchun barcha tadbirlarni qo‘llash;  o‘quvchining faoliyat talablariga va aksincha, faoliyat talablarining o‘quvchi shaxsiga moslasha olishlarini ta’minlash va o‘quvchi-o‘quvchi, o‘quvchio‘qituvchi, o‘quvchi-jamoa o‘rtasidagi hamkorlik faoliyati uchun muhim muvaffaqiyatli munosabatlar o‘rnatila borishni muntazam nazorat ostiga olish;

Umumta’lim maktablari psixologlarining ushbu asosiy yo‘nalishlari psixologik xizmat faoliyatining mahsuldorligini ta’minlab, ta’lim sifatini yanada rivojlantirishi, o‘quvchilar layoqat-qobiliyatini yanada takomillashtirishi, maktab jamoasi ijtimoiy-psixologik muhitini ijobjiy tomonga o‘zgartiradi. Bu kabi yo‘nalishlar faoliyatini yanada samarali olib borish uchun umumta’lim maktablari amaliyotchi psixologlariga qulay shart-sharoit, o‘z vazifalarini samarali amalga oshirishlari uchun maxsus zamon talablariga javob beradigan mashg‘ulot xonalari bo‘lishi maqsadga muvofiq. Shundagina psixologik xizmat maqsad va vazifalari o‘z natijasini ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirishida, jamiyatga o‘quvchi shaxsini komil shaxs qilib etkazishni yanada takomillashtirishi mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlarni ma’naviyaxloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018- yil 14- avgustdagи PQ-3907-son qarori

2. Алёшина Ю. Е. Индивидуальное и семейное психологическое консультирование. — 2-э изд. — М. : Независимая фирма “Класс”, 2000. — 208 с.

3. К. Д. Ушинский, Собрание сочинений, том 8, издание АПН РСФСР, 1950, стр. 23

4. Nishanova Z.T. Psixologik xizmat. -T.: TDPU, 2006. - 162 b